



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 400 sahifa,
1-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning milliy qadriyatlarga oid tasavvurlarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	10
<i>Davlatnazarova Ziyodabonu Muxtor qizi</i>	
Talabalarning xulqidagi devyatsiya darajasining yuqorilab ketishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar.....	16
<i>Ergashev Jo'rabek Xalilovich</i>	
Zo'ravonlikka uchragan bolalarni va ularning oilalarini zo'ravonlikdan himoya qilishning normativ-huquqiy va ijtimoiy-psixologik asoslari.....	19
<i>Ergasheva Gullolaxon Nosirjon qizi</i>	
Tinglab tushunish kompetensiyasining psixolingvistik va pedagogik asoslari.....	24
<i>Jonbo'tayeva Maxarramxon</i>	
O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining kasbiy kompetentlik tizimidagi o'рни.....	27
<i>Kutliyeva Feruzaxon Yusupovna</i>	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvini ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy kompleksni rivojlantirish.....	31
<i>Yunusov Mirsaid Xudayarovich, Istamova Sevdo Ashirqul qizi</i>	
Elektr tizimlari dinamik barqarorligini STEAM va Spiral (Regressus, Progressus) metodlari asosida o'qitish.....	35
<i>Safarov Xoliyor Sayyid Safar o'g'li</i>	
O'quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	39
<i>Norbutayeva Dilafuz Abdurasulovna</i>	
Talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....	43
<i>Rahimova Nazokatxon Kasimjonovna</i>	
Model for Improving Students' Professional Competencies Based on Motivational Learning Approach.....	49
<i>Alibekova Mahzuna</i>	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy tafakkurini shakllantirishning tuzilmasi va pedagogik komponentlari... 54	54
<i>Djumaniyazov Farxod Ulugbekovich</i>	
Yengil atletika bilan shug'ullanuvchi 14-16 yoshli sportchi qizlarda mashg'ulotlar davomiyligi.....	59
<i>Oralova Bibixol Husniddin qizi, G'ulomova Maftuna Sayfulla qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'yinlar orqali o'rgatish.....	64
<i>Ruzmetova D. A.</i>	
Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining axloqiy faoliyatini shakllantirishda pedagogik vositalarning imkoniyatlari.....	68
<i>Saydanova Dilafuz Sadirdinovna</i>	
Xorijiy tajribalar va zamonaviy yondashuvlar asosida tyutorlar kasbiy salohiyatini rivojlantirishda malaka oshirish tizimini takomillashtirish.....	75
<i>Ubaydullayev Zuxriddin Botirovich</i>	
Effective Classroom Activities for Developing Speaking Skills Among EFL Learners.....	79
<i>Akhmatova Munisa Orif qizi</i>	
Xalqaro va milliy baholash dasturlarini hisobga olgan holda boshlang'ich ta'lim mazmunini yangi ta'lim trendlari bilan boyitish.....	86
<i>Gulmira Abdullayeva, Egamberganova Yorqinoy Oллоbergan qizi</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning shaxs identifikatsiyasiga ta'sirining ijtimoiy-psixologik omillari.....	90
<i>Tojiboyeva Nodiraxon Tursunaliyevna</i>	
Analysis of the Methodology for Developing Students' Creative Thinking Competence Using Artificial Intelligence Tools Based on STEAM Educational Technologies.....	94
<i>Tursunaliyeva Nazokat Tokhir qizi</i>	



Oliy ta'lim muassasalarida e-Portfolio ma'lumotlarini markazlashmagan tarzda boshqarishning afzalliklari va muammolari	102
Yusupova Dono Adambayevna, Jalolov Tursunbek Sadriddinovich	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv-tolerantlik haqidagi qarashlari tahlili	110
Amangeldiyeva Adolat Ravshanbek qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni savod o'rgatishga tayyorlashning samarali shakl, metod va didaktik vositalari	115
Go'zal Qurbonova	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishning dolzarb pedagogik masalalari.....	121
Muratova Munavvar O'rol qizi	
Tarkibida toponimlar mavjud maqol va matallarning lingvomadaniy xususiyatlari va ularni o'qitishning lingvodidaktik asoslari.....	126
Usmonova Zamira Jaxongirovna	
Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda tassavur fenomenologiyasi	130
Axmedova Shaxlo Shoxob qizi	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi (haykaltaroshlik san'ati misolida).....	133
Panayeva Maloxat Muminovna	
Взаимосвязь склонности к сравнению внешности, интернет-зависимости и уровня притязаний у студентов-юношей	136
Багдасарова Диана Левоновна	
Роль каракалпакской народной национальной музыки в формировании духовно-нравственных качеств учащихся	141
Зарымова Турсынай Бердибай кызы	
A Review of the Literature on Stem Cells in Dentistry	145
Ruziyeva Kamola Akhtamovna	
Bolalar musiqa va san'at maktablarida estrada san'atini o'qitish masalalari (gitara cholg'usi misolida)	150
Abdullayev O'tkir Sadullayevich	
Talabalarda innovatsion kasbiy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari	154
Avezov Davronbek Soburovich	
O'zbek xalq pedagogikasi an'alarining zamonaviy ta'lim tizimidagi transformatsiyasi	158
Erkaboyeva Nigora Shermatovna	
Texnika va iqtisodiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari talabalarida ingliz tilini mustaqil o'rganishning psixologik-pedagogik xususiyatlari	163
Mamatqodirova Gulnigor Rustamjonovna	
Yangi dunyoviy tartibotning shakllanishi jarayonida siyosiy taraqqiyot barqarorligi va xavfsizligini ta'minlash muammolari	168
Nazarov Alisher Narimanovich	
Ota-onasiz tarbiyalanayotgan o'smir o'g'il bolaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.....	171
Qodirov Jahongir Neymat o'g'li	
Kutubxona muhitida talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishning innovatsion modellari.....	176
Qosimova Xolida Nabiyevna	
Jismoniy imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy harakatli o'yinlar orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish	179
Raxmatullayeva Durdoni Fazliddin qizi	
Personalized Approach to the Treatment of Generalized Periodontitis in the Prediction of Cardiovascular Complications Based on Salivary Proteomic Profiling.....	182
Shodiev O. U., Nazarova N. Sh., Agababayan I. R.	
O'smirlarda irratsional ustanovkalar shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari	187
Toshboltayeva Nodira	
Роль интерактивного лингвокультурологического пространства в формировании лингвокультурной компетенции студентов национальных групп филологических направлений.....	191
Рустамова Ферузахон Махмуджановна	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Talabalarining darsdan tashqari vaqtda mustaqil ravishda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishini shakllantirish 196 Dusanov Shuxrat Abdiraakovich
	Kutubxona muhitida talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishning innovatsion modellari 201 Qosimova Xolida Nabiyevna
	Jismoniy tarbiya darslarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik kompetensiyasini takomillashtirish mexanizmlari 205 Xoliqnazarov Azamat Begaliyevich
	Oliy ta'lim talabalarida kreativ fikrlashni fanlararo integratsiya asosida shakllantirish 209 Allanazarova Dilobar Baxromovna
	"Alpomish" dostonida obrazlar nutqidagi pedagogik qarashlar 213 Boboqulova Aziza Adizovna
	Researching the Biochemistry and Physical Chemistry of Oral Fluid in Kids Who Are Acting Strangely 217 Eraliyeva Zulfiya Makhmudovna, Buzrukhoda Javohir
	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mikro matnlarni o'qitishga qaratilgan kognitiv metodlar 222 I. Matrasulova
	Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirishda raqamli didaktik vositalardan foydalanish metodikasi 225 Komilova Dilnozaxon Abdulhayevna, Xoliqova Mubinabonu Jamoliddin qizi
	Oliy ta'lim muassasalarida onomastik leksikani lingvokulturologik yondashuv asosida o'qitishning strategik-metodik asoslari 229 Mamatqulova Baxtixon Ravshanovna
	Raqamli matnlarning lisoniy va pragmatik xususiyatlari 232 Mashrapova Sevara Xabibovna
	Extensive Pelvic Ureteral Abnormalities and Reconstructive Operations in Patients 237 Mukhsinov Sardor
	Pedagogikada metodlardan foydalanish 241 Maxmudova Nargiz Djumaniyazovna
	Diqqat yetishmasligi giperaktivlik buzilishini davolash usullari 245 Otbasarova Umida Mexmonovna, Inogamova Rano Bahodirovna
	Talabalaridagi sanogen tafakkurning psixologik xususiyatlarini empirik tadqiq etish masalasi 249 Tulyaganova Dilnoza Ulug'bek qizi
	Raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning xorijiy va milliy tajribasini qiyosiy tahlil qilish 253 Abdullayev Sherzodbek
	Context, Intention, and Meaning in English Language Teaching: Developing Pragmatic Awareness in Learners of English as a Foreign Language 256 Keldiyarova Shakhriyoda, Keldiyarova Mohlaroyim
	Maktabgacha yoshdagi bolalarni steam yondashuvi yordamida og'zaki muloqotga o'rgatish mashqlar tizimi 267 Yunusova Malika Miralimovna
	Культурные и исторические коды франции в автобиографической прозе марселя паньоля 270 Рахманкулова Дилафруз Азимовна
	Трансформация роли преподавателя в условиях цифровизации высшего образования 274 Рахматова Нигина Ислмовна
	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy san'atning tutgan o'rni 278 Sultonova Marxabo
	Boshlang'ich sinf matematika darslarida matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi 283 Akramova Fotimabonu Kurbonovna
	Boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari 288 Axmedov Muslimjon Usmonovich
	Boshlang'ich ta'limda musiqa ta'limini sun'iy intellekt va shaxsga yo'naltirilgan pedagogika asosida tashkil etishning ilmiy-metodik asoslari 295 Djumabayeva Muqaddas



“Suvning agregat holatlari va tabiatda aylanishi” mavzusini o‘rgatishda 4K ko‘nikmasini rivojlantirish	300
<i>Esnazarov Abdiganiy Jamalatdinovich</i>	
Raqamli vositalar asosida mexatronika va robototexnika yo‘nalishi talabalarini o‘qitishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	307
<i>Ikromov Muhammad-Anasxon Xakimjon o‘g‘li</i>	
Najmiddin Kubroning ilmiy merosi	311
<i>Jahongir Jumanov</i>	
Oliy ta‘lim muassasalarida talabalarda tejamkorlikni shakllantirishning o‘rni.....	314
<i>Jo‘rayev Alisher Tursinboyevich</i>	
Milliy va umuminsoniy qadriyat fenomenining pedagogik tadqiqotlarda o‘rganilishi.....	318
<i>Jovlijev Jo‘rabek Alisher o‘g‘li</i>	
Jazo muddatini o‘tayotgan shaxslarda emotsional buzilishlarning ijtimoiy-psixologik sabablari	322
<i>Manzitov Baxtiyor Tolibovich</i>	
Maktabgacha ta‘lim jarayonida o‘yin texnologiyalarini qo‘llashning pedagogik asoslari va samaradorligi	329
<i>Nyutnova Xilola Lochinbekovna, Mayliyeva Nasiba Axmedovna</i>	
Ta‘lim menejmentida Predictive Analytics texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari	332
<i>Primqulova Aziza Mirzaahmad qizi</i>	
Yosh sportchilarda tezlik-kuch sifatlarini rivojlantirish usullari	337
<i>Chariyev Ulug‘bek Abdujabbarovich, Radjabov Jaxongir Furkatovich</i>	
Z avlod psixologik xususiyatlariga mos zamonaviy tarbiya texnologiyalari	342
<i>Ravshanov Sanjar Tolibjonovich</i>	
Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasida refleksiya mexanizmining o‘rni	346
<i>Raxmonova Mahfuzaxon Xasan qizi</i>	
Iqtisodiy o‘shishning mohiyati	350
<i>Sayfiddinova Sabina Muhiddinovna</i>	
Dasturlash ko‘nikmalarini baholashda generativ sun‘iy intellekt va gamifikatsiya integratsiyalashgan arxitektura modelini ishlab chiqish.....	353
<i>Sultanov Ravshonbek Otonazarovich</i>	
Ta‘lim klasteri sharoitida talabalarning loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirishning zaruriyati	356
<i>Sultanova Dilnura Abdurashidovna</i>	
Stereometriya darslarida o‘quvchilarning fazoviy tasavvurini va tasvirlash savodxonligini 3D modellashtirish vositasida rivojlantirish	359
<i>Sultonova Shahnoza Yusuf qizi, Sultonova Dilrabo Yusuf qizi</i>	
Chayon zahring biologik xususiyatlari, toksikologik ta‘siri va biotexnologiyadagi istiqbolli qo‘llanilishi.....	365
<i>To‘xtamurodova Feruza</i>	
Pedagogik uslublarning o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanish bosqichlaridagi xususiyatlari	369
<i>Turayeva Dilafruz Rustamboevna</i>	
Sun‘iy intellekt va raqamli ta‘lim texnologiyalari integratsiyasi asosida oliy ta‘limda fizika fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish	375
<i>Usubjonova Durdona Fazliddin qizi</i>	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim va tarbiya maqsadlarini o‘yin mexanikasiga integratsiya qilishning interaktiv modulli texnologiyalarini takomillashtirish	379
<i>Xolmatova Dilshoda Sherali qizi</i>	
Oliy ta‘lim muassasalari bitiruvchilarida shaxsiy qadriyatlarning kasbiy karyerani rejalashtirishdagi ijtimoiy-psixologik ahamiyati	384
<i>Xolyigitova Nasiba Xabibullayevna</i>	
Особенности формирования совместной познавательной деятельности в образовательном процессе.....	388
<i>Абдрахманова А. С.</i>	
Влияние корпоративной культуры вуза на формирование профессиональных ценностей студенческой молодежи.....	393
<i>Бекбаев Рауф Рустамович</i>	

Z AVLOD PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARIGA MOS ZAMONAVIY TARBIYA TEXNOLOGIYALARI

Ravshanov Sanjar Tolibjonovich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti,
"Axborot texnologiyalari, tabiiy va aniq fanlar" kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Z avlod vakillarining psixologik xususiyatlari hamda ularga mos zamonaviy tarbiya texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Raqamli muhitda shakllangan yoshlarning axborotni qabul qilish usullari, motivatsion ehtiyojlari, kommunikativ xulq-atvori va ta'lim-tarbiyaga bo'lgan munosabatlari o'rganilgan. Shuningdek, gamifikatsiya, raqamli pedagogika, interaktiv tarbiya, sun'iy intellekt texnologiyalari va mobil platformalarning tarbiyaviy jarayondagi samaradorligi yoritilgan. Tadqiqot natijalari asosida Z avlod vakillariga mos innovatsion tarbiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Z avlod, psixologik xususiyat, tarbiya texnologiyalari, raqamli pedagogika, gamifikatsiya, interaktiv ta'lim, sun'iy intellekt, mobil texnologiyalar.

Abstract: This article analyzes the psychological characteristics of Generation Z and the pedagogical potential of modern educational technologies adapted to them. It examines the ways in which young people formed in a digital environment perceive information, their motivational needs, communicative behavior, and attitudes toward education and upbringing. In addition, the effectiveness of gamification, digital pedagogy, interactive education, artificial intelligence technologies, and mobile platforms in the educational process is highlighted. Based on the research results, recommendations have been developed for the implementation of innovative educational technologies tailored to Generation Z.

Key words: Generation Z, psychological characteristics, educational technologies, digital pedagogy, gamification, interactive learning, artificial intelligence, mobile technologies.

Аннотация: В данной статье анализируются психологические особенности представителей поколения Z и педагогический потенциал современных образовательных технологий, адаптированных к ним. Изучаются способы восприятия информации молодёжью, сформированной в цифровой среде, их мотивационные потребности, коммуникативное поведение и отношение к образованию и воспитанию. Также освещается эффективность геймификации, цифровой педагогики, интерактивного обучения, технологий искусственного интеллекта и мобильных платформ в образовательном процессе. На основе результатов исследования разработаны рекомендации по внедрению инновационных образовательных технологий, соответствующих поколению Z.

Ключевые слова: поколение Z, психологические особенности, образовательные технологии, цифровая педагогика, геймификация, интерактивное обучение, искусственный интеллект, мобильные технологии.

KIRISH

XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi insoniyatning ijtimoiy, madaniy va pedagogik hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, internet va mobil texnologiyalar muhitida voyaga yetayotgan Z avlod vakillarining dunyoqarashi, fikrlash tarzi va psixologik xususiyatlari oldingi avlodlardan keskin farq qilmoqda. Ushbu avlod vakillari tezkor axborot almashinuvi, multimediyaviy muhit va raqamli kommunikatsiya vositalari bilan uzviy bog'langan holda shakllanmoqda.

Bugungi kunda an'anaviy tarbiya metodlari ko'plab hollarda Z avlod ehtiyojlariga to'liq javob bera olmayapti. Shu sababli zamonaviy pedagogika oldida Z avlodning psixologik xususiyatlariga mos innovatsion tarbiya texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi Z avlod vakillarining psixologik xususiyatlarini tahlil qilish hamda ularga mos zamonaviy tarbiya texnologiyalarining samaradorligini ilmiy asoslashdan iborat.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Z avlod tushunchasi ilmiy adabiyotlarda 1997–2010-yillar oralig'ida tug'ilgan insonlar avlodi sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotchilar ushbu avlodning asosiy xususiyatlari sifatida raqamli tafakkur, vizual idrokning ustunligi, tezkor axborot qabul qilish, qisqa muddatli diqqat markazi va interaktiv muhitga yuqori ehtiyojni ko'rsatadilar.

M. Prenskining "digital natives" konsepsiyasiga ko'ra, Z avlod vakillari texnologiyalar bilan tabiiy integratsiyalashgan holda rivojlanadi. J. Twenge esa ushbu avlodning ijtimoiy tarmoqlarga qaramligi va individualistik qarashlari kuchayib borayotganini ta'kidlaydi.

Mahalliy pedagog olimlar tomonidan ham raqamli pedagogika va innovatsion tarbiya metodlarining samaradorligi o'rganilgan. Tadqiqotlarda interaktiv metodlar, mobil ilovalar va gamifikatsiya elementlari yoshlarning motivatsiyasini oshirishi aniqlangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida pedagogik kuzatish, qiyosiy tahlil, psixologik diagnostika va ilmiy manbalarni o'rganish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim platformalari hamda interaktiv tarbiya vositalarining amaliy samaradorligi tahlil qilindi.

Tadqiqot obyekti sifatida umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi Z avlod vakillari tanlab olindi.

Tadqiqot predmeti esa ularning psixologik xususiyatlariga mos tarbiya texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Z avlodning asosiy psixologik xususiyatlari

Ilmiy tadqiqotlar va zamonaviy pedagogik kuzatuvlar natijasida Z avlod vakillarida bir qator o'ziga xos psixologik xususiyatlar shakllanganligi aniqlangan. Ushbu xususiyatlar ularning axborotni qabul qilish, qayta ishlash va ijtimoiy muhitda o'zini tutish jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Z avlod vakillari vizual axborotni tez va samarali qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lib, matndan ko'ra tasvir, video va grafik formatdagi ma'lumotlarni tezroq o'zlashtiradilar. Bu ularning raqamli muhitda shakllangan kognitiv xususiyatlari bilan bog'liq.

Ular qisqa, aniq va dinamik kontentga yuqori darajada qiziqish bildiradilar. Uzun va murakkab matnli axborotga nisbatan qisqa video, infografika va interaktiv materiallar ularning diqqatini ko'proq jalb qiladi.

Z avlod vakillarida multitasking, ya'ni bir vaqtning o'zida bir nechta faoliyatni bajarish ko'nikmasi nisbatan rivojlangan bo'lib, ular bir nechta raqamli platformalar bilan parallel ishlashga odatlangan.

Ushbu avlod interaktiv faoliyatga kuchli moyillik ko'rsatadi. Ular passiv tinglashdan ko'ra, jarayonda bevosita ishtirok etish, fikr bildirish va natijaga ta'sir ko'rsatishni afzal ko'radilar.

Z avlod vakillari mustaqil fikrlash va erkin tanlovga intilish bilan ajralib turadi. Ular an'anaviy avtoritar yondashuvdan ko'ra, demokratik va hamkorlikka asoslangan muhitni ma'qul ko'radilar.

Ularning hayotida virtual kommunikatsiya ustun o'rin egallaydi, ya'ni ijtimoiy tarmoqlar, messengerlar va onlayn platformalar asosiy muloqot vositasi sifatida xizmat qiladi.

Z avlod vakillarida tezkor natija olishga bo'lgan ehtiyoj yuqori bo'lib, ular jarayonning uzoq davom etishidan ko'ra tez va aniq natijani afzal ko'radilar.

Ushbu psixologik xususiyatlar ta'lim va tarbiya jarayonida an'anaviy yondashuvlardan ko'ra innovatsion, raqamli va interaktiv texnologiyalardan foydalanishni zarur etadi, chunki aynan shu yondashuvlar Z avlodning kognitiv va motivatsion ehtiyojlariga mos keladi.

Z avlodga mos zamonaviy tarbiya texnologiyalari

Gamifikatsiya texnologiyasi

Gamifikatsiya elementlari asosida tashkil etilgan tarbiya jarayoni Z avlod vakillarining motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi. Ball tizimi, badge, leaderboard va missiyalar orqali o'quvchilarning faol ishtiroki ta'minlanadi.

Gamifikatsiya ichki motivatsiyani kuchaytiradi, raqobat muhitini yaratadi, jamoaviy faoliyatni rivojlantiradi, tarbiyaviy jarayonni qiziqarli qiladi.

Interaktiv tarbiya texnologiyalari

Interaktiv tarbiya texnologiyalari zamonaviy pedagogik jarayonning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u ta'lim oluvchini passiv tinglovchi roldan faol ishtirokchi va mustaqil fikrlovchi subyektga aylantirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv Z avlodning psixologik xususiyatlariga, ya'ni tezkor fikrlash, vizual va amaliy faoliyatga moyillik, shuningdek, interaktiv muhitda ishlashga bo'lgan ehtiyojiga to'liq mos keladi.

Interaktiv metodlar orasida debat (munozara), case study (muammoli vaziyatni tahlil qilish), brainstorming (fikrlar hujumi) va role-play (rolli o'yinlar) kabi usullar keng qo'llaniladi. Ushbu metodlar o'quvchilarning dars jarayonida faol ishtirokini ta'minlab, ularni faqat ma'lumot qabul qiluvchi emas, balki bilimni tahlil qiluvchi, solishtiruvchi va amaliyotga tatbiq etuvchi shaxs sifatida shakllantiradi.

Debat metodi orqali o'quvchilar turli qarashlarni himoya qilish va asoslash ko'nikmasini rivojlantiradi, bu esa ularning mantiqiy fikrlash va argumentatsiya qilish qobiliyatini kuchaytiradi. Case study usuli real hayotiy muammolarni tahlil qilishga asoslangan bo'lib, o'quvchilarda muammoga tizimli yondashuv va qaror qabul qilish kompetensiyasini shakllantiradi.

Brainstorming metodi esa ijodiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi, chunki bu jarayonda o'quvchilar erkin fikr bildirish orqali yangi g'oyalar ishlab chiqadilar. Role-play texnologiyasi esa ijtimoiy rollarni modellashtirish orqali empatiya, kommunikativ ko'nikma va ijtimoiy moslashuv qobiliyatini kuchaytiradi.

Interaktiv tarbiya texnologiyalari o'quvchilarda quyidagi kompetensiyalarni rivojlantiradi: kommunikativ kompetensiya, tanqidiy fikrlash, jamoada ishlash ko'nikmasi, muammoli vaziyatlarni hal qilish malakasi hamda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati. Shu sababli ushbu metodlar Z avlodni zamonaviy ta'lim va tarbiya tizimida samarali shakllantirishning muhim vositasi hisoblanadi.

Raqamli pedagogika va mobil texnologiyalar

Raqamli pedagogika zamonaviy ta'lim va tarbiya tizimining ajralmas qismi bo'lib, u axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish orqali o'quv jarayonini yanada moslashuvchan, interaktiv va natijador qilishga xizmat qiladi. Ayniqsa, Z avlod vakillarining raqamli muhitda shakllangan psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, mobil ilovalar, QR-platformalar, LMS (Learning Management System) tizimlari hamda sun'iy intellekt asosidagi vositalar tarbiya jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Mobil ilovalar o'quvchilarga istalgan vaqtda va istalgan joyda bilim olish imkonini yaratadi, bu esa ta'limning uzluksizligini ta'minlaydi. QR-platformalar esa tezkor axborot almashinuvi va interaktiv materiallarga oson kirishni ta'minlab, o'quv jarayonini yanada qulay va dinamik qiladi. LMS tizimlari orqali esa o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro aloqa tizimli ravishda boshqariladi, topshiriqlarni berish, bajarilishini nazorat qilish va natijalarni tahlil qilish jarayonlari avtomatlashtiriladi.

Sun'iy intellekt vositalari esa raqamli pedagogikaning eng ilg'or bosqichi hisoblanib, ular individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish, o'quvchining bilim darajasini tahlil qilish hamda mos tavsiyalar berish imkonini yaratadi. Bu esa har bir o'quvchiga shaxsiy yondashuvni ta'minlaydi.

Raqamli vositalarning asosiy afzalliklari bir necha muhim yo'nalishda namoyon bo'ladi. Birinchidan, individual yondashuvni ta'minlash orqali har bir o'quvchining bilim darajasi, qobiliyati va o'zlashtirish tezligiga moslashtirilgan ta'lim jarayoni tashkil etiladi. Ikkinchidan, masofaviy monitoring imkoniyati o'qituvchiga o'quvchilarning faoliyatini real vaqt rejimida kuzatish va zarur hollarda tezkor pedagogik aralashuv qilish imkonini beradi. Uchinchidan, real vaqt rejimida tahlil qilish orqali o'quvchilarning natijalari, faolligi va rivojlanish dinamikasi doimiy ravishda baholanadi. To'rtinchidan, o'quvchi faolligining avtomatik nazorati tizim orqali amalga oshirilib, ularning dars jarayonidagi ishtiroki va topshiriqlarni bajarish darajasi aniq statistik ko'rsatkichlar asosida aniqlanadi.

Raqamli pedagogika va mobil texnologiyalar zamonaviy tarbiya jarayonini yangi bosqichga olib chiqib, uni Z avlod ehtiyojlariga mos, moslashuvchan va samarali tizimga aylantiradi.

Sun'iy intellekt asosidagi tarbiya texnologiyalari

Sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida individual tavsiyalar berish, psixologik holat monitoringi, adaptiv ta'lim muhiti yaratish, shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini shakllantirish imkoniyati mavjud.

Bunday texnologiyalar Z avlod ehtiyojlariga moslashuvchan pedagogik muhit yaratishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Z avlod vakillarining psixologik xususiyatlari an'anaviy tarbiya metodlarini modernizatsiya qilishni talab etadi. Zamonaviy tarbiya texnologiyalaridan foydalanish yoshlarning motivatsiyasi, ijtimoiy faolligi va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega.

Gamifikatsiya, interaktiv metodlar, raqamli pedagogika va sun'iy intellekt texnologiyalari Z avlodning ehtiyojlari va psixologik xususiyatlariga mos keluvchi innovatsion vositalar sifatida muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Kelgusida adaptiv sun'iy intellekt tizimlari hamda immersiv virtual muhitlardan foydalanish tarbiya samaradorligini yanada oshirish imkonini beradi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Prensky M. Digital Natives, Digital Immigrants // On the Horizon. – 2001. – Vol. 9. – №5.
2. Twenge J. iGen: Why Today's Super-Connected Kids Are Growing Up Less Rebellious. – New York: Atria Books, 2017.
3. Toffler A. The Third Wave. – New York: Bantam Books, 1980.
4. Muslimov N.A. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan, 2019.
5. Ishmuhamedov R. Ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2020.
6. Xudoyberdiyev A. Raqamli pedagogikaning zamonaviy tendensiyalari // Pedagogik mahorat. – 2023. – №4.
7. UNESCO. Digital Learning and Transformation of Education. – Paris, 2022.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.